

FAYNBERGNING BADIY DUNYOSI: MAVZU VA G'OYALAR TAHLILI

Esonaliyeva Xusnida Shavkatjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-ingliz tili fakulteti 2-bosqich

talabasihusnidaesonalieva@gmail.com

Umarov Bobur Norboyevich

Ilmiy rahbar: Ingliz tili integrallashgan kursi 3-kafedra katta o'qituvchisi

bobirumarov80@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning ijodi, uning she'rlaridagi asosiy mavzu va g'oya haqida so'z yuritiladi, shuning uning "So'z", "Taqdir" va "Shamol" she'rlari tahlil qilinadi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, yetakchi mavzular, "So'z", "Taqdir" va "Shamol" she'rlari, ruhiy teranlik, Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon.

Annotation: This article discusses the *творчество* of Aleksandr Faynberg, focusing on the main themes and ideas reflected in his poetry. In particular, his poems "Word", "Fate", and "Wind" are analyzed, and relevant conclusions are drawn based on their artistic and philosophical features.

Keywords: Aleksandr Faynberg, leading themes, "Word", "Fate", "Wind", spiritual depth, Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon.

Аннотация: В данной статье рассматривается творчество Aleksandr Faynberg, анализируются основные темы и идеи его поэзии. Особое внимание уделяется стихотворениям «Слово», «Судьба» и «Ветер», проводится их художественный и философский анализ и формулируются соответствующие выводы.

Ключевые слова: Александр Файнберг, ведущие темы, «Слово», «Судьба», «Ветер», духовная глубина, Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon.

KIRISH

Aleksandr Faynberg o'zining betakror asarlari bilan o'z davrining eng is'tedodli shoirlaridan biri sifatida ajralib turgan. U o'z she'rlari orqali inson qalbining nozik kechinmalarini, hayotning murakkab va go'zal jihatlarini samimiy ifoda eta olgan shoirdir. Uning ijodida muhabbat, sog'inch, hayot mazmuni, insoniy qadriyatlar, ruhiy iztirob, umid, Vatan va inson munosabati kabi mavzular yetakchilik qiladi. Shuningdek, shoir murakkab fikrni oddiy va tushunarli shaklda bera oladi. Uning she'rlarida ortiqcha dabdaba yo'q, balki ichki ruhiy teranlik ustuvordir. Shu sabab ham shoir ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shoirning "so'z" she'ri ham hajm jihatidan kichik bo'lsada, uning har bir satridan o'quvchi o'zi uchun kerakli xulosalarni ola oladi.

Poyezd kechikishi oddiy voqea,

Samolyotni kutib ichikadi ko'z.

Haqiqiy baxtsizlik, katta fojia –

Mabodo kechiksa kutilyotgan so'z.

So'ngan gulxan uzra bo'lgandek pushmon,
Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun.
Kechikkan so'z g'arib, yig'laydi yomon,
Uni kecha kutgan odamlar uchun.
Kechikkan so'z bois o'rmonlar yetim,
Bepoyon yerlarning peshonasi sho'r.
Qabrlar qoshida so'z ham beso'z, jim,
Ruhlar bezovta-yu qismat ko'zi ko'r.

Aleksandr Faynbergning "So'z" she'ri inson hayotidagi eng nozik va muhim masalalardan biri - vaqtida aytilmagan so'z fojiasini badiiy va falsafiiy jihatdan yoritib beradi. A. Faynberg o'ziga xos sodda, ammo chuqur ma'noli uslub orqali odiy hayotiy voqea misolida katta ma'naviy muammoni ko'taradi. She'r boshida poyezd yoki samolyotning kechikishi oddiy holat sifatida tasvirlanadi. Bu taqqoslash orqali muallif oddiy kechikish bilan ma'naviy kechikish o'rtasidagi farqni ochib beradi. Transportning kechikishi vaqtinchalik noqulaylik tug'diradi, biroq inson qalbi kutgan so'zning kechikishi haqiqiy fojia ekanini ta'kidlaydi.

She'r markazida "kechikkan so'z" turadi. Bu so'z oddiy nutq birligi emas, balki muhabbat, kechirim, dalda yoki e'tirof timsolidir. Shoir jonlantirish san'atidan foydalanib, so'zni "g'arib" va "yig'laydi" deya tasvirlaydi. Natijada so'z tirik mavjudotdek ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu esa asarning ta'sirchanligini oshiradi. Muallifning fikricha, kecha aytilishu kerak bo'lgan so'z bugub o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Vaqt o'tadi, inson qalbidagi og'riq chuqurlashadi va kechikkan so'z uning o'rnini bosa olmaydi.

She'rning keyingi misralarida mazmum yanada teranlashadi. "Qabrlar qoshida so'z ham beso'z, jim" degan satrlar orqali vaqtinijg qaytmasligi, hayotning o'tkinchiligi ta'kidlanadi. Inson hayotdan o'tgandan so'ng aytilgan kechirim yoki muhabbat izhori befoyda bo'lib qoladi. Bu yerda shoir insonni ogohlikka chorlaydi: yaxshi so'zni, samimiy e'tirofni yoki mehrni ortga surmaslik kerak. "O'rmonlar yetim", "yerning peshonasi sho'r" kabi obrazlar esa kechikkan so'z sabab paydo bo'ladigan ruhiy bo'shliq va ma'naviy yo'qotishlarni ramziy ifodalaydi. Umuman olganda, she'r insoniy munosabatlarning qadrini anglashga undaydi.

Taqdir – haqdir.
Chiranma unga,
Bor qilar ham yo'q qilar taqdir.
Boshqa yozmish berilmas senga,
Hayot yanglig' taqdir ham haqdir.
Ehtiyot qil ruhi joningni,
Dunyo kengdir doimo kengga.
Sotma faqat ruh, imoningni,
Boshqa ruh ham berilmas senga.

Aleksandr Faynbergning mazkur she'ri inson hayotidagi eng muhim tushunchalardan biri — taqdir masalasini falsafiy ruhda talqin etadi. Ushbu she'r o'zbek tiliga Sirojiddin Sayyid tomonidan tarjima qilingan bo'lib, unda shoirning chuqur hayotiy qarashlari va

ma'naviy tamoyillari aniq ifodasini topgan. Aleksandr Faynberg bu she'rida insonni taqdir oldida kamtarlikka, sabr va e'tiqodga chorlaydi.

She'r "Taqdir – haqdir" degan qat'iy hukm bilan boshlanadi. Bu misra asarning bosh g'oyasini belgilab beradi. Shoir taqdirni inkor qilib bo'lmas haqiqat sifatida talqin qiladi. "Chiranma unga" degan murojaat orqali insonning behuda qarshilik ko'rsatishi foydasiz ekanini uqtiradi. Taqdir borni yo'q, yo'qni bor qilishi mumkinligi ta'kidlanib, hayotdagi o'zgarishlar inson irodasidan tashqarida ham sodir bo'lishi mumkinligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, "Hayot yanglig' taqdir ham haqdir" misrasi taqdir va hayot o'rtasida ma'naviy uyg'unlik borligini anglatadi.

She'rning ikkinchi qismida esa asosiy urg'u insonning ichki dunyosiga qaratiladi. Shoir "Ehtiyot qil ruhi joningni" deya insonni ma'naviy poklikni asrashga chaqiradi. Dunyo kengligi, imkoniyatlar ko'pligi ta'kidlanadi, biroq inson uchun eng qimmatli boylik bu — ruh va imondir. "Sotma faqat ruh, imoningni" degan misra asarning axloqiy cho'qqisi hisoblanadi. Moddiy boylik o'rnini to'ldirish mumkin, ammo ruh va e'tiqod qayta berilmaydi. Bu fikr "Boshqa ruh ham berilmas senga" misrasi orqali yanada qat'iy ifodalanadi. Shoir shu ikki misra she'r orqali inson taqdiri haqidagi o'z qarashlarini bayon qiladi, taqdir doim haq ekanini, unga behuda chiranish, qarshilik ko'rsatish befoйда ekanini tushuntirmoqchi bo'ladi va bu yo'lda iymonini mustahkam tutish, uni sotmaslik darkorligini ta'kidlaydi.

Tun. Boloxonaga chiqaman birpas,
Navbahor. Hurillab turadi shamol.
Oqargan sochimga, yuzimga emas,
Yurakka, yurakka uradi shamol.
Yoshlig-u baxt-shodlik, kulfat-g'am bilan,
Dengiz-u bog'larda yeladi bevosh.
Shamolning qarisi bo'lmas umuman,
Shamol hamisha yosh, shamol doim yosh.

Shoirning ushbu "Shamol" she'ri istedadli tarjimon Rustam Musurmon tomonidan tarjima qilingan bo'lib, tun va bahor manzarasi orqali insonning ichki kechinmalari tasvirlanadi. Shoir shamol obrazidan ramziy ma'noda foydalanadi. Shamol shoirning sochiga yoki yuziga emas, "yurakka uradi", ya'ni u tashqi emas, ichki holatni ifodalaydi. Bu yerda shamol — xotira, vaqt va umr oqimining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. She'rda yoshlik, baxt, g'am va kulfat shamol bilan birga "yeladi". Eng muhim fikr esa: "Shamolning qarisi bo'lmas" degan satrlarda jamlangan. Inson qarishi mumkin, ammo tabiat va ruhiy tuyg'ular doimo yangilanadi. She'rning asosiy xulosasi shuki, vaqt tashqi ko'rinishni o'zgartiradi, biroq qalb yoshlikni saqlab qolishi mumkin; haqiqiy yoshlik — bu yurakdagi tiriklik va his-tuyg'ulardir.

Xulosa

Aleksandr Faynberg she'rlarida o'ziga xos insoniy hislar mujassamdir. Ayniqsa, sog'inch, hayotga bo'lgan muhabbat, ruhiy izzat kabi tushunchalar shoir ijodining yetakchi mavzularidir. U o'z she'rlari orqali o'quvchini hayotni sevishtga, hamisha unga umid bilan boqishga chorlaydi. Shuningdek, shoir she'rlarini mahorat bilan tarjima qilingani ham, uning tub mazmunini tushunishga yordam beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faynberg Aleksandr Arkadevich <https://share.google/gHCcDM0p55zz2Ep0T>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. Aleksandr Faynberg. Qoralanmaga Qasida (2021) | PDF
<https://share.google/FiXWU5RVfDT5EOSvS>
4. <https://share.google/iIN7n43JtMjQKIork>